

“Maxam-Chirchiq” Ajda “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi

// 26.12.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-ajda-rahbar-va-yoshlar-uchrashuvi-bo-lib-o-t-d>



Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash — bu shunchaki dastur yoki shior emas, balki kelajakka qilingan aniq sarmoyadir. Yosh insonga ishonch bildirish, uning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish orqali jamiyat barqaror va sog‘lom rivojlanadi. Har bir yoshning bilimi, mehnati va mas‘uliyati qadrlangan muhitda ular o‘z o‘rnini topadi, yurti taqdiriga daxldor ekanini his qiladi va shu his-tuyg‘u bilan halol, fidokor va tashabbuskor bo‘lib kamol topadi.



“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan yosh mutaxassislar bilan ochiq muloqotni ta‘minlashga qaratilgan “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” loyihasi ham ana shu maqsadda muntazam tashkil etib kelinmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov ishtirokida o‘tkazilgan navbatdagi muloqot “Maxam-Chirchiq” AJ yoshlari bilan bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda “Maxam-Chirchiq” AJ boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov, “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi a‘zolari va 120 nafar korxona yoshlari ishtirok etishdi. Ma‘lumot uchun, hozirda korxonada 5 500ga yaqin ishchi-xodimlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 925 nafarini yoshlar tashkil etadi. Jamiyat yoshlarining 79 nafari rahbar va muhandis-texnik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.



Rasmiyatchilikdan holi, jonli muloqot shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildilar. Bundan tashqari korxonada ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlash, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan qator takliflarini ham bildirib o‘tishdi. Xususan, “Maxam-Chirchiq” AJning yaqin 3-5 yillik strategik rivojlanish rejalari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar, yosh kimyogarlar oldida turgan masalalar bo‘yicha savollar yo‘llandi.



Shu bilan birga sohada sun‘iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan tanlovlarni yo‘lga qo‘yish, yoshlarning malakasini oshirishga qaratilgan o‘quv kurslarini tashkil etish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Tadbir nihoyasida har tomonlama faol bo‘lgan yosh xodimlar tashabbuskorligi yuqori baholanib, tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

